



“ONA TILI DARSLARIDA TA'LIMiy O'YINLAR”

Sotvoldiyeva Shaxnozaxon Soibjonovna

Andijon viloyati shahrixon tumani 37-umumta'lim maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: *Boshlang'ich ta'limda ta'limiy o'yinlarning ayrim qirralari haqida malumotlar joy olgan. Ushbu metodik qo'llanma ayrim metod va o'yinlardan oqilona foydalanish nazarda tutilgan. Shuningdek, "Ona tili darslarida ta'limiy o'yinlar"ni o'ziga hosligini ko'ra olishimiz mumkin bo'ladi. Metodik qo'llanmada didaktik o'yinlar metodi, intervyu metodi, kim ochdi savdosi metodi, charxpalak metodi, muammoli vaziyat metodi, g'ijimlangan qog'oz metodi, didaktik o'yinlar orqali darslar tashkil qilinishi tavsiya qilganmiz. Metodik qo'llanma boshlang'ich sinf o'qituvchilari va ona tili va adabiyot o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.*

Kalit so'zlar: *ta'limiy o'yinlar, metod, didaktik o'yin, muammoli vaziyat, g'ijimlangan qog'oz metodi, kim ko'p belgi topish o'yini, bir gapda yetti hil bo'lak metodi.*

Ona tili o'qitish metodikasida o'qituvchilarning savodini chiqarish, grammatik tushunchalarni shakillantirish, ularning nutqiy va imloviy savodxonligini oshirishda qo'llaniladigan usullar, variantlari ko'p. Fonetik grammatik, orfografik tushunchalarini mustahkamlash, nutqiy malakani mukammal shakillantirishda metodika fanidan belgilangan mashqlar qatorida ta'limiy o'yinlar muhim o'rin tutadi. Ta'limiy o'yinlarning boshqa mashq turlaridan farqi shuki, bunda, bir tomondan, bolalarning fikrlash jarayoni tezlashadi, muayyan belgilangan malakalarning mufassal shakillanishi osonlashadi.



Ta'lim metodlarining mohiyati




Ma'lumki o'quvchi qancha yosh bo'lsa darsda qo'llanadigan qiziqarli o'yin elementlari shunchalik ko'p bo'lishi lozim. Chunki darsda qo'llanadigan didaktik o'yin, bir tomondan, ayrim bolalar tabiatiga xos bo'lgan qiziquvchanlik sho'xlik kabi xususiyatlariga muvofiq kelsa, ikkinchi tomondan, ba'zan bolalardagi odamoviylik, indamaslik, uyatchanglik kabi jihatlarni bartaraf etib boradi. Demak, o'yin jarayoni o'quv psixologiyasida keskin o'zgarishlar yasaydi. O'yin davomida o'quvchi mavhum grammatik orfografik tushunchalar mohiyatini anglay boshlaydi, uning xotirasida ko'pgina so'zlar uchun umumiy bo'lgan belgilar o'rin ola boshlaydi., og'zaki va yozma nutqidagi nuqsonlari kamaya boshlaydi. Ta'limiy o'yinlar sinf jamoasini erkin titishlarini taminlaydi, darsning samaradorligini ortirib boradi. O'yinda ko'pchilik o'quvchilarning faol ishtiroki ta'minlanib, reyting ballarining qo'yib borish imkoniyati tug'iladi.

O'yinlarning yana bir diqqatga sazovor joyi shundaki, sinfda inoqlik, yaxshi kayfiyat, shiddat hukum so'radi. O'quvchilar bir birlariga yordam bergilari kelib, sinf jamoasini jipisligi yanada mustahkamlanadi.





Biz quydagi ta'limiy o'yinlarning turlari va ularning qo'llash variantlari to'g'risida so'z yuritamiz.





Ona tilidan ta'limiy o'yinlardan, shuningdek, she'r, ertak, hikoya, topishmoq, tezaytishlardan, turli rebus va boshqatirma, jadvallardan ham unumli foydalanilsa bo'ladi.

O'yinni tashkil qilishda o'qituvchi quydagi tamoyillarga amal qilishi lozim.

- o'yin qiziqarli, sodda, tushunarli, aniq bo'lsin;
- o'yin mavzuga mos, chuqut mazmunli bo'lsin;
- o'yinda iloji boricha ko'proq o'quvchi ishtirok etsin;
- o'yinda qiziqarli narsalar ko'p bo'lsin;
- o'yin o'tkazilish muddati, tartibi aniq bo'lsin;
- o'yin o'quvchilarning muayyan malakalarini shakllantirilsin;
- o'yin og'oliblari rag'batlantirib borilsin;

O'quvchi o'yin turlarini mustahkamlanayotgan mavzuga muvofiq tanlab, belgilangan o'yin turiga mos shaklini tuzib, o'yin tartibini aniq belgilab olishi lozim bo'ladi.

Boshlang'ich sinflar ona tili dasturidagi har bir mavzu bo'yicha muayyan shakildagi ta'limiy o'yinning ta'lim-tarbiyaviy maqsadini belgilab, o'yniga kerakli materialni tayyorlab, o'quvchilarga ta'limiy o'yinni o'tkazish tartibini aniq tushuntirib



berishi, o'yinni o'zi boshqarib borishi kerak. O'yin oxrida tegishli hulosalar chiqarib, qo'yilgan ballar e'lon qilinadi.



1-o'yin "So'z o'yini", qaysi tovush so'zlarning ma'nosini o'zgartiryapti?
1-variant og'zaki.

Bunda o'qituvchi navbat bilan so'zlarning ayta boshlaydi, o'qituvchilar qo'l ko'tarib, qaysi so'zning ma'nosi o'zgartirayotganini tovushini aytishadi.

2-variant. Yozma ravishda.

Bunda ikki guruhdan iborat o'quvchilar musobaqa tarzida xattaxtada yozilgan so'zlarning ma'nosini o'zgartirayotgan harfni tagiga chizib borishadi.

O'yin uchun so'zlar:

| | | | |
|------|------|-------|--------|
| bil | bash | boz | bozor |
| bol | bosh | bez | bezori |
| bel | bosh | bo'z | bezar |
| bor | bas | bo'g' | bo'lim |
| ber | bos | bog' | bilim |
| bo'l | bet | bug' | |
| bo'r | but | | |
| bir | bot | | |



| | | | |
|-------|------|--------|-----|
| | | | |
| to'g' | tol | tayoq | qor |
| to'r | til | tuyoq | bot |
| bet | tush | tana | zor |
| tur | tosh | tuna | tor |
| tus | tish | tasma | kor |
| to's | tot | to'sma | xor |
| tos | tut | | |

2-o'yin. "Harflarni o'zgartirib, so'z tuzing!" 1-variant og'zaki.

Bunda o'qituvchi so'zni aytadi, o'quvchilar bir so'z tartibidagi unli yoki undosh tovushni o'zgartirib yangi so'z topish, bu so'zlar ishtirokida gaplar tuzadlar.

2-variant yozmaravishda.

Hattaxtaga so'zlar qator yozilib qo'yiladi. 2-guruhdagi o'quvchi unli yoki undosh harflarni go'zgartirib yangi so'zlar tizib yozadilar. O'yin musobaqa shaklida bo'ladi.

O'yin uchun so'zlar.

Unlilarni o'zgartirish.

| | | |
|--------|---------|---------|
| kun | ko'p | kon |
| ko'z | ko'r | kar |
| dil | do'l | |
| nafas | nafis | |
| aka | uka | |
| alam | olam | |
| ariq | oriq | |
| barmoq | bermoq | |
| osh | esh | |
| pichoq | pachocq | po'choq |
| soz | so'z | Suz |
| saman | somon | |

Undoshlarni o'zgartirish.

| | | | |
|--------|--------|-------|-----|
| Moy | toy | choy | soy |
| Til | dil | bil | qil |
| bor | tor | qor | xor |
| Alam | qalam | dalam | |
| Ayiq | qayiq | | |
| asal | kasal | masal | |
| barmoq | qarmoq | tarmo | |
| barcha | archa | | |



| | | | |
|---------|---------|---------|--|
| bo'g' | tog' | dog' | |
| bosh | qosh | tosh | |
| kam | nam | g'am | |
| tuz | muz | kuz | |
| nog'ora | zog'ora | Tog'ora | |
| sariq | tariq | | |
| sahar | zahar | shahar | |
| tovoq | qovoq | | |

Bir harfni olib so'z tuzish:

| | | | |
|--------|-------|-----------|------|
| qo'y | o'y | sharpa | arpa |
| g'alla | alla | Uxlamoq | |
| g'alla | alla | uxlamoq | |
| qanor | Anor | Topishmoq | |
| qarz | arz | Tekin | |
| o'rtoq | o'toq | po'choq | |



Boshlang'ich sinflarda "Bir so'z bilan javob topish" o'yini.

1-variant. Og'zaki.

Bunda o'qituvchi aytgan savolga javoblar navbatma navbat ikki yoki uch guruhga topish o'yinlari topshiriladi. Savolga javob topish uchun bir sekund vaqt beriladi. Har bir aytilgan javob uchun bir achiko'dan berib boriladi.

2-variant. Yozma.



Bunda savollarga yozilgan javoblar stol tepasigateskari qilib qo'yiladi. Guruhdagi o'quvchi o'zi olgan balni xattaxtaga yozib boradi. Qaysi guruh avval va to'g'ri bajarsa o'sh guruh rag'batlantirib boriladi.

Savol javoblar na'munasi.

- | | |
|--|-----------|
| 1. Beshik tertatib aytiladigan qo'shiq. | (alla) |
| 2. Daraxtni bo'laklarga ajratadigan asbob. | (arra) |
| 3 "Shirin"so'zini aksi | (achchiq) |
| 4. Tezda so'zini sherigi | (darrov) |
| 5. Oltidan keyingi raqam. | (yetti) |
| 6. To'rtning yarimi. | (ikki). |
| 7. Sovuq so'zini aksi. | (issiq) |
| 8. Ko'paytirish jadvali. | (karra) |
| 9. Kichik so'zini aksi. | (katta) |
| 10. Kuch so'zini aksi. | (quvvat) |
| 11. Sariq so'zini sherigi. | (malla) |
| 12. Yugurish musobaqasi chegarasi. | (marra) |
| 13. Vaqt so'zini sherigi. | (muddat) |
| 14. Naqsh soluvchi usta. | (naqqosh) |
| 15. Mikrob tashiydigan hashorat. | (pashsha) |
| 16. Rasm chizuvchi kasb. | (rassom) |
| 17. Bir kam o'n. | (to'qqiz) |
| 18. Haroba o'rmonda yashovchi qush. | (qarg'a) |
| 19. Qorani antonimi. | (oq) |
| 20. Uzun so'zini sinonimi. | (kalta) |

3-variant. Yozma.

Oldingi parta ustiga juft, kelgan undoshlar yozilgan varaqalar teskari qilib qo'yiladi. Ikkala guruh qatnashchilari varaqlardan bittadan olib, ketma ket kelgan undoshli so'zlarni topib xattaxtaga yozib boradilar. Qaysi guruh misollarni ko'p topib bajarsa, o'sha guruh rag'batlantiriladi.



Namuna

| | | |
|------|---------|----------|
| tt | katta | latta |
| ss | issiq | hassa |
| ll | alla | malla |
| zz | izzat | tizza |
| ch | achchiq | |
| mm | amma | hamma |
| rr | arra.. | Karra |
| pp | oppoq | do'ppi |
| shsh | pashsha | Qashshoq |

“Bo'g'indan ism” tuz o'yni.

1~variant.Og'zaki.

Bunda o'qituvchi bo'g'in aytadi, o'quvchilar ism tuzadilar



”Tuz”o'yni

2-variant. Yozma ravishda.

Xattaxtaga uchta guruh uchun bittadan bo'g'in yozib qo'yiladi, o'quvchilar musobaqa tarzida ism tuzib borishadi.



3-variant. O'g'zaki.

Har bir musobaqadosh guruhdagi aytgan ismni ohrida harfi bilan boshlanadigan ismni topib aytadi. Ism topolmagan o'quvchi yutkazgan hisoblanadi.(masalan: Aziza-Arofot, Tijibar, Ra'no, Oygul, Latif, Farhod, Dilmurod kabilar).

O'yin uchun so'zlar.

| | |
|--------------|--------------------|
| Qizlar ismi: | O'g'il bolalar ism |
| Mu... | O... |
| Muattar | Olim |
| Miborak | Obid |
| Munavvar | Odil |
| Mukarrama | Ozod |
| Muqaddas | Omon |
| | |
| Na... | Ra... |
| Nazira | Rasul |
| Nigina | Rustam |



| | |
|----------|---------|
| Nargiza | Rasul |
| Nafisa | Rayxona |
| Namuna | Rashid |
| Nasiba | Rafuq |
| | |
| | |
| Sha... | A... |
| Shukrona | Asad... |
| Sharifa | Adham |
| Shahlo | Asal |
| Sharofat | Asom |
| Shaxnoza | Ali |



Mavzu: "Narsa va Shaxs harakatini bildirgan so'zlar".

"Teskari so'zni top" o'yni.

1-variant.Og'zaki ravishda.

2-variant.Yozma ravishda.

O'yin uchun so'zlar.



Suv: oqadi, to'xtaydi.
 Kun: isiydi soviydi.
 Qush: uchadi, qo'nadi.
 Daraxt: ko'karadi, quriydi.
 Bola: uxlaydi, uyg'onadi.
 Oy: ko'rinadi, bekinadi.
 Mehmon: keladi, ketadi.
 Sut: qaynaydi, soviydi.

O'qituvchi. O'quvchilar

o'yin o'yna
 ish ishla
 boy boyi
 bosh boshla
 varoq varoqla
 gap gaplash
 oq oqla

“Kim ko'p belgi topish” o'yni.
 1-variant.Og'zaki.
 2-variant.Yozma.

| Gul | Suv | Osmon |
|--------------|-------------|--------------------|
| qizil gul | tiniq suv | baland osmon |
| xushbo'y gul | layqa suv | ko'm ko'kosmon |
| chiroyli gul | oqar suv | bulutli osmon |
| tikonli gul | sho'r suv | tiniq osmon |
| so'ligan gul | chuchuk suv | shishadek osmon |
| ochilgan gul | toza suv | bulutsiz osmon |



“Bir gapga yetti hil bo‘lak” o‘yni.

Namuna.

Xurshid qayerda o‘qiydi.

Xurshid maktabda o‘qiydi.

Xurshid maktabda qanday o‘qiydi.

Xurshid maktabda a'lo o‘qiydi Xurshid qayerga boradi?

Xurshid to‘garaklarga boradi.

Xurshid to‘garaklarda nima yasaydi.

Xurshid to‘garaklarda samalyot modaelini yasaydi.

U unda nima qiladi?

U uyida vazifalarni tayyorlaydi.

Xurshid nimalarni o‘qiydi?

Xurshid kitob jurnallarni o‘qiydi.

Xurshid kimga yordam beradi?

Xurshid do‘stiga yordam beradi.

“Gap tuzishda adashma” o‘yni.

O‘yin tartibi:

Boshlovchi va 3-4 nafar o‘quvchi doira bo‘lib o‘tiradilar. Boshlovchi birinchi so‘zni aytadi, 1-o‘quvchi ikki so‘zni, ikki o‘quvchi ikki so‘zni...ohrigi o‘quvchi ohrigi so‘zni aytib, gapni tugatadi. O‘rtada gap uchun kerakli so‘zlarni aytoilmagani uchun o‘quvchi o‘yindan chiqib, uning o‘rnini boshqa o‘quvchi egallaydi. O‘yin uch va to‘rtta gap tuzish bilan tugaydi. Shu muddat adashmagan o‘quvchi g‘olib bo‘ladi.

Namuna.

Boshlovchi: O‘lkamizga

1-o‘quvchi: g‘o‘zal

2-o‘quvchi: bahor



3-o'quvchi: fasli

4-o'quvchi: keldi.

G'ijimlangan qog'oz o'yni.

O'yin tartibi: besh oltita o'quvchi xattaxta oldida tiziladi. Boshlovchi narsa nomini bildirgan so'zni aytadi, navbatdagi o'quvchi bu so'zni oxridagi tovush bilan boshlanadigan so'zni g'ijimlanga qog'ozga yozadi. To'htalib qolgan o'quvchi o'yindan chiqib ketadi.

Namuna

echki, ilon, novvoy, yo'lbars, sichqon, nok va h. k.

"Adashma" o'yini.

O'yin tartibi: boshlovchi xattaxta oldiga saflangan besh olti nafar o'quvchilarni har biriga bittadan so'z aytadi, o'quvchi esa o'sha so'zga lar qo'shimchasini qo'shib javob qaytaradi. Aytilayotgan so'zlar orasida lar qo'shimchasini qo'shib bo'lmaydigan so'zlar bo'ladi. Bu so'zga lar qo'shimchasini qo'shgan o'quvchi o'yindan chiqib ketadi.

O'yin uchun so'zlar.

-kitob, daftar, gul, ko'm ko'k, qush, keldi.

-qalam, uchdi, men, daryo, bo'lmoq, qaymoq.

-dengiz, osmon, qog'oz, yashil, tosh, uch to'rt va h.k.

Baliq ovi o'yini

"Baliq ovi" o'yini O'yinni o'lkazishdan maqsad: Mavzu asosida olgan bilimlarini muslaqil qo'llay bilish qobitiyatini shakllanirish. Og'zaki nulqini rivojlantirish. O'yinni o'lkazish jarayoni: O'yin jihozi: 10-12 ta katlondan qirqib yasalgan baliqchalar. Ularning har biriga kichkina magnit yopishtirilgan. 2 la qarmoq (ruchka yoki qalamning bir uchiga qalinroq ipga magnit bog'lab yasaladi). Baliqlarakvariumga (ya'ni qutichaga) solinadi. Baliqlaming har biriga raqam qo'yiladi. Raqamlarga doir savol va loqshiriqtar alohida konvetl ichiga solibqo'yiladi. Shunday qilinsa, o'yinni lurli mavzu va darslarda qo'llash imkoni bo'ladi. Bu o'yin bir o'quvchi bilan yoki bir nechta o'quvchi ishtirokida o'lkazilishi mumkin



Boshlang'ich sinflarda ta'limiy o'yin o'tkazilafigan bir soatlik dars konspekti.



Mavzu: “O'tgan zamon feli qo'shimchasi imlosini mustahkamlash”.

Darsning ta'limiy maqsadi: o'tgan zamon feli qo'shimchasi yozilishi bo'yicha imloviy malakalarni shakillantirish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarni kasb hunarga bo'lgan qiziqishini o'stirish.

Dars metodi: suhbat.

Dars jihozi: mavzuga oid ko'rgazmali qurollar, tarqatmali mateliallar.

Darsning borishi.

Tashkiliy davri: davomatni aniqlash, darsga kirish suhbat.

O'tilgan mavzu bo'yicha suhbat.

Demak, bolalar uy vazifasi mashqini ko'chirib, fellarni topish kerak. Bu mashq matnda qaysi so'zlar fel ekani?

Rivojlangan, tanilgan va taqdirlangan so'zlaridagi gan qo'shimchasi qanday tovushdan so'ng kelyapti va qanday so'z talafuz qilinyapti?

Qatnashgan so'zida qanday tovushdan keyin kelyapti va qanday tallafuz qilinyapti?

Mustahkamlash:

Mashqlar o'yin tarzida bajariladi. O'yinning nomi “Qo'shimchani qo'y” deb ataladi. Xattaxtaga mashqdagi so'zlar quydagicha yozib qo'yiladi.

| | |
|------|------|
| ayt | yeg |
| ko'r | ich |
| yek | tik |
| chaq | tiq |
| chiq | qirq |

2.O'quvchilar beshtadan bo'lib ikki guruhga saflanadi. O'yinni boshlashga o'qituvchi ishora beradi. Har bir o'quvchi bittadan so'zga o'tgan zamon qo'shimchasini qo'yib yozadi.

3.Mashqlar shartiga ko'ra bajariladi.

4.Mashqlar sxemasi xattaxtaga osiladi.

5.Lug'at diktanti.

6.Ta'limiy vosita bilan ishlash.

O'quvchilarga tarqatma varaqalar beriladi. O'quvchilar ulardagi so'zlarni qatnashtirib gap tuzadilar.

Tarqatma varaqalardagi misollar: yopishgan, yorishgan, jo'natgan, izg'itgan, ishgan, ichga, yirtgan, yo'qotgan, kesgan, kechekkan, jo'natgan, izg'itgan, ishga, tuqqan, urishgan, ushatgan.

Uyga vazifa: namuna sifatida pishdi fe'li xattaxtaga yoziladi va bu so'zda di dan so'ng kelganda ti tarzida talaffuz qilinishi, ammo di yozilishi uqtiriladi.

Darsni yakunlash:



Bolalar, biz bu darsimizda o'tgan zamon fe'li qo'shimchasini yozilishini mashq qildik. Demak, o'tgan zamon fe'li qo'shimchasi k tovushi bilan tugagan fe'llarga kan, q tovushi bilan tugagan fe'llarga qan qo'shilar ekan.

Darsda faol qatnashgan o'quvchilarning ballari e'lon qilinadi.

Xulosa:

Boshlang'ich sinflar uchun mo'jallangan ona tili darslarida ta'limiy o'yinlar ishlab chiqilgan metodik qo'llanmamizda. Xulosa shuki, boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga chuqurroq singdirish lozim. Ta'limiy o'yinlar o'rgatishda turli metodlar orqali berilishi lozim. Oftob boshiga tushishi bilan yoqimlilik hissi shakillana boshlaydi. Insonga mehr tushunchasi eshutilishi bilanoq qalbida ajib bir tuyg'uni his etish bilan ifodalanadi.

Har bir o'qituvchi darslari jarayonida o'quvchilarga tushuntirilib berishi lozimdir. Boshlang'ich sinflarda ta'limiy o'yinlar tushunchasi o'qituvchi tomonidan ochib berilmasa mavhumligicha qolaveradi.

Metodik qo'llanmada, didaktik o'yinlar metodi, g'ijimlangan qog'oz metodi, so'z o'yni metodi, so'z ichida kelgan bir hil undoshlar, teskar so'zni top metodi, ko'k ruchka metodi, adashma metodi, xotira mashqi didaktik o'yini, yillar tilga kirganda didaktik o'yini orqali tushuntirib o'rgatishni tavsiya qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N. Rahmatov, Vatanimiz fiziklari, Toshkent, 1983. Ahadova, O'rta Osiyolik mashhur olimlar va ularning matematikaga doyr ishlari, Toshkent, 1983
2. O'rta Osiyo klassik fani va zamonaviy dunyo tsivilizatsiyasi Toshkent, 2000.
3. Atanasyan L. S., Butuzov V. F. va boshqalar. Geometriya, 3-nashr, M.: Vita-Press, 2003 yil. Vygodskiy M. Y.. Boshlang'ich matematika bo'yicha qo'llanma. M.: Fan, 1978 Yil. Qayta nashr etish: M.: ast, 2006.
4. ISBN 5-17-009554-6, 509 sahifa Andoza: Andoza Biblio informatsiyasi:
5. Andoza: ixcham topologik yuzalar
6. www.ziyonet.uz